

ZAMONAVIY O'QITISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Komilova Dilorom Narzullayevna

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti.

Komilova Musharraf Narzullayevna

G'ijduvon agrotexnologiyalar texnikumi maxsus fan o'qituvchisi.

Sharipova Nigora Usmonovna

G'ijduvon agrotexnologiyalar texnikumi maxsus fan katta o'qituvchisi.

Ergashev Shoxrux Ilhom o'g'li

G'ijduvon agrotexnologiyalar texnikumi maxsus fan katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada professoional ta'limda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Ta'lim, pedagog, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim sifati, texnologiyalar, kasbiy faoliyat.*

Bugungi taraqqiyot davri barsha jabhalarda, shular orasida ta'lim-tarbiya jarayonlariga ham talabalarni kasbiy faoliyatga moslashtirish jarayoniga ijodiy yondashuvini talab etmoqda. Bu birinshidan, XXI asrdagi ilm, madaniyat, texnika va texnologiyalarining rivojlanish tezligi talabalarda o'zlarining kasbiy faoliyatiga yangisha munosabatda bo'lishni, innovatsion texnologiyalarni chuqur o'zlashtirishi hamda ularni o'z faoliyatiga olib kirish muhimligini bilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Shuningdek milliy mentalitetimizga mos tarzda ta'lim va tarbiyaning samaradorligini ta'minlashga pedagog xodimlarimizning mualliflik texnologiyalar va mualliflik metodlarni yaratishi va ta'lim-tarbiya jarayonlarida talaba yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarining etarli darajada yo'lga qo'yilmayotganligi bilan belgilanadi.

Hozir O'zbekistonda ta'limga katta e'tibor berilmoqda, ta'lim sifatiga va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga yangi talablar qo'yilmoqda. Bugungi oliy ta'lim tizimi kasbiy faoliyatini takomillashtirishga qodir shaxsning kasbiy, ijodiy faolligini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur jadal rivojlanayotgan davrda bo'lajak o'qituvchilarga qo'yilayotgan talablarni aniqlash fan, texnika, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida talabalar o'qitishni tashkil qilish va uning uslublarini muntazam takomillashtirish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi, jamiyatning o'sishiga ta'sir etmay qolmaydi. Kadrlar tayyorlashning boshqa yo'nalishlarida bo'lgani kabi, oliy pedagogik ta'lim mazmunida ham bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy faoliyati sohasini kengaytirish va sifat jihatidan o'zgartirish bilan bog'liq tub islohotlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchining an'anaviy funksiyalari bilan bir qatorda (o'qitish, ta'lim, rivojlanishga yordam berish, baholash, ota-onalar bilan ishlash va boshqalar) ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'z kasbiy faoliyatini avvaldan loyihalash kabi kasbiy funksiyalar dolzarblashib bormoqda. Chunki

rivojlanayotgan jamiyatimizga o'z tanlovlarining oqibatlarini avvaldan bashorat qilib, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila oladigan, zamonaviy bilimli, yuksak ma'naviyatli va ishbilarmon kadrlar kerak.

Kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayoniga pedagogik kreativlikning quyidagi sifatlarini, ya'ni:

- ijodiy yo'nalganlik,
- mantiqiy fikrlash qobiliyati,
- eruditsiya,
- boy tasavvurga ega bo'lish,
- o'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyon etish,
- refleksiya qobiliyati,
- hissiyotga boy bo'lish,
- tavakkal qila olish qobiliyati,
- tafakkur tezligiga egalik,
- ichki sezgining rivojlanganligi,
- o'ziga xos (original) g'oyalarni ilgari sura olish,
- innovatsion qobiliyatga egalik,
- yuksak badiiy qadriyatlarga egalik,

- mavjud bilim va tajriba asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xozirgi kunda barcha ta'lim muassasalari o'zlarining bitiruvchilarini tayyorlash jarayonida ularga kelajakda ish beruvchi tashkilotlar bilan birga hamkorlikda ishlashlari lozimligi xech kimga yangilik emas. Ammo mavjud xamkorlik zamon talablariga to'liq javob beradigan darajada yetarlicha amalga oshirilmayotganligi sababli xamkorlikning zamonaviy innovatsion usullarini joriy etish muammosi hamon aktualligicha qolmoqda va mazkur yo'nalishda ish olib borish maqsadga muvofiq

Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil izlanishli faoliyatini takomillashtirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish, oldindan rejalashtirilgan natijaga erishishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini metodik jihatdan hal etishga yo'naltiriladi. Bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalar tadqiqiy asosini mustaqil izlanishli faoliyat, shaxsiy faoliyatli yondashuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. O'qitish vositalarining yuqori unumdorligini ta'minlash va ulardan oqilona foydalanish vazifasi mutlaqo yangi o'qitish modeli, ta'lim jarayonining o'ziga xos yo'nalishini vujudga keltiradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qitish texnologiyasining asosiy tavsifi sifatida uning tizimlilik, ilmiyligi, qayta tiklanuvchanligi, qo'shiluvchanligi, samaradorligi, sifat va motivlashganligi, algoritmliligi, axborotlilik, nusxa olish imkoniyati, yangi sharoitga moslashtirilishi kabi jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Talabalarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalariga bir qancha psixologikpedagogik tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lsada, tadqiqotchilarning katta qiziqishi va olingan natijalarning ahamiyatiga qaramasdan, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini shakllantirish muammosi hali to'liq hal etilgan deb bo'lmaydi. Buning asosiy sabablari quyidagilardir:

- bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining faoliyati mazmuni, mohiyati va rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiradigan kasbiy pedagogik tayyorgarligini shakllantirish jarayonining nazariy va pedagogik asoslarini yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarligini shakllantirish o'rniga, ularning tayyorgarlik xaqidagi nazariy tushunchaga ega ekanligi bilan qanoatlanuvchi ananaviy yondoshuvlarning keng tarqalganligi va qo'llanilishi;
- bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarlash jarayonni ilmiy-amaliy tashkil etishda tizimli ta'sir etish o'rniga, alohida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lmagan tasodifiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan yondashuvdan foydalanilayotganligi;
- ta'lim sohasidagi sifatni baholashning zamonaviy talablariga javob beradigan, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini shakllantirish natijalarini aniqlash va baholash texnologiyasini ishlab chiqish darajalarining nomutanosibligi.

Ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan sabablar bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi borasida tadqiqotlarni sifat va miqdor jihatdan ko'proq o'tkazilishi lozimligini ko'rsatadi.

Kasbiy tayyorgarlik – bu ta'lim oluvchilarni ma'lum bir ish, ishlar guruhini bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'zlashtirishni jadallashtirish maqsadidagi kasbiy ta'lim tizimi. Kasbiy tayyorgarlik talabalarning ta'lim darajasini oshirish bilan amalga oshmaydi. Davlat zarur hollarda asosiy umumiy ta'limga ega bo'lmagan shaxslarga kasbiy tayyorgarlikni qo'lga kiritish imkoniyatini yaratadi. Kasbiy tayyorgarlikni boshlang'ich kasb-hunar ta'limi muassasalarida va boshqa ta'lim muassasalarida olinishi mumkin. Bunday faoliyatga kasbiy yo'naltirilgan bilim, ko'nikma, qobiliyat shuningdek kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishni ta'minlovchi tashkiliy va pedagogik tadbirlar tizimi kiradi. Bu pedagogik institutlar, universitetlar va qayta tayyorlash fakultetlarida o'qitish doirasida amalga oshiriladi. Mazkur jaoayonlarning muhim tarkibiy qismi – pedagogik amaliyot hisoblanadi. Bundan tashqari umumiy hulosa sifatida, kasbiy tayyorgarlik – ma'lum bir faoliyat sohasida ishlashga imkon berish maqsadida, talabalar tomonidan muayyan ish yoki ishlar guruhini bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashni jadallashtirishga qaratilgan o'zlashtirish jarayon ekanligini ta'kidlashadi va malaka talablariga qarab mutaxassisdan tegishli kasbiy ta'limini talab qiladigan kasbiy tayyorgarlikning uchta asosiy bosqichini keltirishadi: oliy, o'rta-maxsus, boshlang'ich kasb-hunar (past malakali ishchilarni kurslarda tayyorlash, ishlab chiqarishda individual-jamoaviy mashg'ulotlar o'tkazish va boshqalar). Demak tayyorgarlik, malakaning oshishi amaliy mehnat faoliyati jarayonida qo'yilgan masalalarni mustaqil ravishda yechim topish va hal etish, ongli ravishda ta'lim olish – izlanish yo'li bilan

takomillashtiriladi. Hulosa o'rnida aytish mumkinki, kasbiy tayyorgarlik – talabalar tomonidan muayyan vazifalarni, bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashni jadallashtirishga qaratilgan faoliyatdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isakulova N.J. Kasb ta'limi metodikasi: o'quv qo'llanma.-T.:Fan; 2014. – 200 b
2. R.A.Mavlonova, N.H.Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov (2008) «Umumiy pedagogika» . «Fan va texnologiya» nashriyoti T.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M., Mirsolieva M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik» moduli bo'yicha UMK. Toshkent 2017 -155 b
4. O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'zieva (2019) «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat » » Toshkent innavatsiya – Ziyo » T
5. Шаврина О. Ю. Педагогика учителя. Уфа Стерлитамак, 2000